

IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOGIK XIZMAT VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Xudoyberdiyev Shuhrat Ramazonovich

Xalqaro innovatsion universiteti

“Magistratura” bo’limi boshlig’i

Email: shuhratxudoyberdiyev76@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15826501>

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqtidorli bolalar bilan ishlashning psixologik asoslari, ularning rivojlanish xususiyatlari va ta’lim jarayonida ular bilan individual yondashishning o’ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Shuningdek, iqtidorli bolalarning psixologik ehtiyojlarini aniqlash, ularni qo’llab-quvvatlash usullari va samarali pedagogik mexanizmlari, iqtidorli bolalar bilan ishlashda mavjud muammolar hamda ularning yechimlariga oid masalalar keltirilgan.

Аннотация

В статье описываются психологические основы работы с одаренными детьми, особенности их развития, специфика индивидуального подхода к ним в образовательном процессе.

Также в статье рассматриваются вопросы, связанные с выявлением психологических потребностей одаренных детей, методы их поддержки и эффективные педагогические механизмы, а также существующие проблемы в работе с одаренными детьми и пути их решения.

Kalit so’zlar: psixologik xizmat, shaxs kamoloti, intellekt, aql, psixologik tashxis, psixologik maslahat, iqtidorli bolalar, qobiliyat va qiziqish, psixolog o’qituvchi, ijtimoiy-psixologik muommolar, ijodkorlik, muloqot qobiliyati, pedagogik yondashuvlar.

Ключевые слова: психологическая служба, личностное развитие, интеллект, психика, психологическая диагностика, психологическое консультирование, одаренные дети, способности и интересы, педагог-психолог, социально-психологические проблемы, креативность, коммуникативные навыки, педагогические подходы.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ulkan o’zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta’lim-tarbiya tizimida ham o’ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim jarayonida shaxsni kamol toptirish shart-sharoitlarini yaratish ta’lim muassasalarida ishlarni to’g’ri tashkil etilganligi bevosita psixologik xizmatni to’g’ri tashkil etishga ham bevosita bog’liqdir. Ta’lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi tarbiyalanuvchi, o’quvchining individual-psixologik



xususiyatlarini o'rganish asosida uning shaxsi har tomonlama kamol topishi, ham ma'naviy, jismoniy, axloqiy, ham aqliy rivojlanishi, o'zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta'lim-tarbiyaviy hamda ma'naviy-ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Ma'lumki, keyingi yillarda ta'limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarning ustivorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish jarayonida ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal suratlar bilan olib borildi. Darhaqiqat, davlat taraqqiyoti, jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual potentsiali bilan o'lchanadi. Chunki ilmiy dunyoqarashi yuqori darjada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'lishi shubhasiz.

Bugungi kunda olib borilayotgan ijodiy intellektual salohiyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi talab darajasi deb ayta olmaymiz. Shu jihatdan jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, yoshlarni ta'lim jarayonida intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Har bir o'quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Aynan bu davr talabi sifatida ta'lim maskanlarida tahsil oldayotgan bolalar orasidan iqtidorli yoshlarni kashf etish, ularni aniqlash va qobiliyatlarini rivojlantirish zarur peagogik mexanizmlardan biri ekanligi hammamizga ayon hodisadir [1]. Demak, jamiyat taraqqiyotining bugungi kuni iqtidorli bolalar bilan bog'liq ekan, ularni bilim ko'lamini yanada kengaytirish, har sohada qobiliyatli qilib tarbiyalash, nafaqat oila, balki, ta'lim tizimining ham katta vazifasi sanaladi.

Avvalo, iqtidorli bola bu - umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan, ko'p jihatdan boshqa bolalardan ajralib turadigan bolalar hisoblanadi. Ta'lim jarayonida bunday bolalar bilan o'qituvchi-psixolog shug'ullanadi va bu alohida e'tiborni talab qiladi. Vaholanki, psixolog iqtidorli bolalarni aniqlab, ularni chuqur o'rganishi, o'qituvchi bilan hamkorlikda uni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Chunki bugungi



shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyat iqtidorli o'quvchilarni yanada ko'paytirishni taqozo qilmoqda.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda umumiy bolalarning 20-25% iqtidorli deb tasniflangan. Ammo iste'dodlarni rivojlantirish uchun kerakli yordamni ololmasliklari natijasida atigi 2-5% o'quvchi chinakam iqtidorli bo'lib qolarkan. Ya'ni, rivojlantirish va o'qitish jarayonidagi sustkashlik, e'tiborsizlik kabi muommolar mamlakat potensial iste'dodining 90% ini yo'qotar ekan. Jumladan, Yevropa mamlakatlarida o'quvchilarning sust rivojlanishi va qobiliyatsizligi sababli, maktabdan haydalgan 30% ga yaqin o'quvchi aslida iqtidorli va hatto qobiliyatli ekanligi aniqlangan [2]. Aslida, bunday o'quvchilarga boshqalardan farq qiladigan fikr va nuqtai nazar bilan amaliy vakolatli yordam ko'rsatish kerak. Ammo ko'rib turganimizdek, bolalar iqtidori o'z vaqtida to'liq aniqlanmaganligi, o'rganilmaganligi ko'plab salbiy natijalarga olib keladi. Shunday ekan har bir ta'lim muassasasida psixologik xizmatning yaxshi yo'lga qo'yilishi maktab o'quvchilarilari orasidan qobiliyatli, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash va iste'dodlarni rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Tabiiyki, bu jarayonda savol tug'iladi. Psixolog bu jarayonni qanday tashkil qilsa bo'ladi?

Binobarin, iqtidorli bolalarni aniqlash davomiy jarayon bo'lib, bu shaxsning rivojlanishini chuqur tahlil qilish bilan bog'liq. Jumladan, psixolog bunda quyidagi yo'nalishda ish boshlasa ma'qul:

1. Psixologik tashxis.
2. Psixologik profilaktika.
3. Psixologik maslahat.
4. Psixologik ta'lim.
5. Psixologik salomatlik.
6. Iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash.

Tashxis ishida, dastlab bolani kuzatish, iqtidorli bolani portretini tuzish, uning motiv va qiziqishlarini o'rganish. Uni qaysi sohada qobiliyati bor va qiziqishlari nimada ekanini aniqlash. Profilaktika ishida esa psixolog o'qituvchi, ota-ona va bolalar o'rtasida psixologik madaniyatni shakllantirishi ko'zda tutiladi. Psixologik maslahat jarayonida bolani kattalar va tengdoshlari o'zaro to'g'ri munosabatni shakllantirishga harakat qilishi, iqtidorli bolaga tengqurlari va jamoa o'rtasida o'zini erkin tutishga o'rgatishi lozim. Psixologik ta'limda iqtidorli bolalar va kattalarni psixologik bilimlar bilan tanishtirishga qaratilgan ishlar olib boriladi. Psixologning vakolatiga, shuningdek, bolani psixofiziologik



sog'lig'ini saqlash, ularda ijobiy "Men" konsepsiyasini shakllantirish, ularning o'quv faoliyat sifatini yanada oshirish kiradi.

Iqtidorli bolada ko'plab ijtimoiy-psixologik muammolar ham mavjud. Jumladan, iqtidorli bolalarning aqliy intellektual rivojlanishi yuqori bo'lganligi sababli ular o'z tengdoshlariga qaraganda materialni tezroq va chuqurroq o'zlashtira oladilar, ularga bir oz boshqacha o'qitish usullari kerak bo'ladi. Ushbu muammolarni hal qilish usullaridan biri boyitish va tezlashtirish bo'lishi mumkin. Iqtidorli o'quvchilarni rivojlantirish amaliyoti iqtidorli bolalarni ijodkorlik, muloqot qobiliyatlarini o'rgatish, ijodiy shaxsning kelajakda ijtimoiy ro'yobga chiqishiga hissa qo'shadigan yetakchilik va boshqa shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan maxsus dasturlar va o'quv materiallarini ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Mana shu kabi muammolarni o'rganish, ularni hal etish yo'llarini bilish, iqtidorli yoshlar bilan ishlash mexanizmlarini ishlab chiqish, o'rganish va kreativ fikrlash orqali ular bilan individual ishlash jarayoniga professional yondashish uchun har bir o'qituvchi-murabbiy maxsus tayyorlangan, malakaviy tayyorgarligi yuqori bo'lishi zarur. O'qituvchilar nafaqat iqtidorli o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini tushunishlari, balki pedagogik metodlarni ham to'g'ri qo'llay olishlari kerak.

O'qituvchilarni malaka oshirish va pedagogik bilimlarni yangilash orqali ularning iqtidorli o'quvchilarni o'qitishda samaradorligi oshadi. O'qitish jarayonida turli pedagogik yondashuvlar va metodlarni integratsiya qilish, iqtidorli o'quvchilarning salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi. Bunga, misol sifatida, diferensial ta'lim, loyihaviy ta'lim va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash kiradi [3]. Har bir bolada o'ziga yarasha iqtidor bo'ladi. Kimdadir og'zaki va tushunishga yoki hisob- kitob ishlariga va hokazo. Ko'pincha iqtidorli bolalarning o'zlari muammolarining manbai hisoblanadi. Iqtidorli bolalar va ularning tengdoshlari o'rtasidagi munosabatlar qanchalik qiyin bo'lishi hech kimga sir emas. Muayyan sohada iqtidorga ega shaxslarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash maqsadida pedagogik, psixologik, ijtimoiy shart-sharoitlar yaratish, ularning ma'naviy-ruhiy kamoloti, aqliy-ijodiy iqtidorini oshirishning zarur me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar bir qator hujjatlarda o'z aksini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4306- son qarori aynan iqtidorli bolalar bilan ishlashni takomillashtirishni nazarda tutadi. Jahon tajribasida ham iqtidorlilar masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Dunyoning yetakchi davlatlarida bunday



tadqiqotlar, iqtidorli bolalar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'z faoliyatini yuritadi [4]. Jumladan, Yevropa mamlakatlari va AQSH da iqtidorlilar uchun bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun hissa qo'shadi.

Keyingi yillarda yurtimizda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash orqali ta'lim muassasalari o'z oldiga qo'ygan vazifalarni, ya'ni yoshlarni mustaqil fikrlash, bo'sh vaqtlarini tashkil etish, ularning birorta kasb-hunar egallashi uchun poydevor yaratish, iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida amalga oshirish orqali iqtidorli o'quvchilar safini kengaytirishga erishilmoqda. Shu jihatdan bugungi kunda iqtidorli yoshlarni aniqlash va uni rivojlantirishda bolani kichik yoshidan, boshlang'ich sinfdan ko'ra bilish, qobiliyatini o'stirishga tayyorlash va uni o'zi qiziqqan sohasiga yo'naltirish muhim hisoblanadi. Demak, ta'limdagi mavjud muammolarni hal qilish, zamonaviy ta'limga mos imkoniyatlarni yaratish yosh avlodning iste'dodlarini rivojlantirishga keng yo'l ochadi. Shu boisdan boshlang'ich maktabda iqtidorli o'quvchilarni o'qitishda individual yondashuvdan foydalanish ancha samarali natijalar beradi va individuial ishlaganda bola iqtidorini namoyon etishda ko'proq imkoniyatga ega bo'lib tez rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova M.O., Todjimamatova M.E., To'ychiyeva, R.N. "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va tarbiyalashning pedagogik asoslari". Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Vol. 3, no. 7, 2023, pp. 55-63.
2. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. -T.:O'qituvchi, 1997.
3. Murodov S. Iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Toshkent, O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2020 йил.
4. Musayev J. O'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. Monografiya. – T.: Sharq, 2010. – 252 b.

